



COMPARATIVE ANALYSIS OF REFORMS BEING IMPLEMENTED IN THE EDUCATION SYSTEM OF OUR COUNTRY

Umidjon Musayev

Associate Professor, PhD

Mamun University

Urgench, Uzbekistan

e-mail: musayev_umidjon@mamunedu.uz

ABOUT ARTICLE

Key words: Education, upbringing, the law "On Education", higher educational institutions, state technical and vocational training, model, continuing education, teacher, pupil, student, youth, development and innovation.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: The article provides a detailed analysis of the innovations, reforms, and development processes implemented in the education system since our country gained independence, the quality of education and the increase in the number of educational institutions, and the raising of our country's educational structures to the level of world educational standards, as well as the opinions of scholars on education and upbringing.

MAMLAKATIMIZ TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING QIYOSIY TAHLILI

Umidjon Musayev

dotsent, PhD

Ma'mun universiteti

Urganch, O'zbekiston

e-mail: musayev_umidjon@mamunedu.uz

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, "Ta'lim to'g'risi"dagi qonun, OTM, DTS, model, uzluksiz ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, talaba, yoshlar, rivojlanish va innovatsiya.

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan boshlab ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan yangiliklar, islohotlar va rivojlanish jarayotlari, ta'lim sifati va ta'lim muassasalarining ko'payib borishi hamda davlatimiz ta'lim-tarbiyat tuzulmalarining jahon ta'lim standartlari darajasiga ko'tarilib borishi, shu bilan birgalikda ta'lim va tarbiya haqidagi olimlarning fikr mulohazalarini atroflicha tahlil qilib ochib berilgan.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕФОРМ, РЕАЛИЗУЕМЫХ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ НАШЕЙ СТРАНЫ

Умиджон Мусаев

Доцент, доктор наук

Университет Мамун

Ургенч, Узбекистан

E-mail: musaev_umidjon@mamunedu.uz

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Образование, воспитание, Закон «Об образовании», ОТМ, ДТС, модель, непрерывное образование, учитель, ученик, студент, молодежь, развитие и инновации.

Аннотация: В статье с момента обретения независимости нашей страны раскрываются инновации, реформы и процессы развития, реализуемые в системе образования, качество образования и увеличение количества образовательных учреждений, а также подъем образовательных структур нашей страны до уровня мировых стандартов образования, а также детальный анализ мнений ученых об образовании и воспитании.

KIRISH. Mamlakatning rivojlanish istiqbolini, birinchi navbatda, kadrlar salohiyati va undan foydalanish darajasi belgilab beradi. Respublikamizda olib borilgan islohotlar jarayonida kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarishga alohida e'tibor qaratildi. Oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini ta'minlash maqsadida jahon ta'lim standartlari talablariga mos keluvchi mutaxassislarni tayyorlash va ilmiy salohiyat darajasini ko'tarish bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganib, respublikamiz davlat ta'lim standartlaridan kelib chiqqan holda, ilm-fan rivojini yangi bosqichga ko'tarish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Maqolada prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Milliy tarakkiyot yulimizni kat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga kutaramiz" nomli asari, nutq va ma'ruzalaridan hamda I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari, Tillaboyev S., A.Zamonovlarning "O'zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari)" darsligidan hamda internet saytlardan foydalanilgan. Foydalanilgan materiallar maqolaning ilmiyligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik va vorisiylik, retrospektiv, tizimli funksional tahlil, kompleks yondashuv, sotsiodinamik yondashuv, sotsiologik tahlil, dialektik va sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Hozirgi globallashgan dunyoning rivojlangan mamlakatlarida texnik-texnologik yutuqlar va innovatsion yondashuvlar bilan belgilanadi. Ba'zi adabiyotlar va olimlarning qarashlarida

innovatsiya shunday ta'rif berilgan: "Innovatsiya- deb yangi turdagi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasi"[1; 80], - deya ta'riflanadi.

MUHOKAMA. Shu o'rinda 1992-yil 2-iyulda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, 1997 yil "Ta'lim to'g'risida"gi (34 ta moddadan iborat) qonunning yangi tahriri hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Shular asosida qabul qilingan qonun osti hujjatlari yordamida 2020 yilgacha izchillik bilan rivojlantirilib keldi. 2020 yil 23 sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun mutlaqo yangi tahrirda qabul qilindi. Umuman qonun 75 modda va 11 ta bobni o'z ichiga olgan.

Mustaqillik yillarida ta'lim tizimida olib borilgan islohotlarga ko'z tashlaydigan bo'lsak, 1997 yildagi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim to'g'risidagi qonunni hayotga tadbiiq etilishi natijasida uzluksiz ta'limimizning o'ziga xos, boshqa davlatlar ta'lim tizimidan farqlanadigan "o'zbek modelini" yaratilishi jahon jamoatchiligini mamlakatimizning ta'lim sohasidagi tajribasini o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchayishiga sabab bo'ldi.

O'tgan davr mobaynida ta'lim sohasidagi islohotlarning davlat siyosatining asosiy tamoyillari sifatida qabul qilinib, isloh qilish omillari, uzluksiz ta'lim tizimi, ta'lim turlari, ularni shakllantirish asoslari va ularning boshqaruv tarkibi, pedagog xodimlarning burch va mas'uliyatlari, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlik aniq belgilab berildi hamda 1997 yildan hayotga tadbiiq etib kelindi.

Bularning amaliy namunasi sifatida mustaqillikning ilk kunlaridanoq 10 mingdan ortiq xalq ta'limi sohasi xodimlariga davlat uylari berilish, tashkilot va muassasalar tasarrufidagi uylarning 22 mingdan ortiq xodimga esa bepul xususiyashtirilishi, yana 50 mingdan ortiq pedagoglarga uy-joy qurish uchun yer uchastkalarining berilishi, qishloq joylarida istiqomat qilib faoliyat olib boruvchi o'qituvchi-pedagoglarning barcha kommunal to'lovlardan ozod etilgan bo'lsa, shaxarlarda 50 foizi miqdorida to'lab bordilar. Hozirgi kunda bu imtiyozlar bekor qilindi deyishingiz mumkin. Bu fikr aslo noto'g'ri bo'lib, aslida, oylik maosh kompensatsiyalar ko'rinishida va yillar mobaynida bosqichma-bosqich oylik maoshlarining oshirib borilishi buning yaqqol namunasi hisoblanadi.

1992-yilda qabul qilingan va 1997 yil yangi tahrirda "Ta'lim to'g'risi" dagi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida 7 bosqichli ta'lim turlari belgilab berildi. Ular: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish ta'limi va maktabdan tashqari ta'lim turlariga bo'linadi. Bu jarayonlar 2020 yil 23 sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun mutlaqo yangi tahrirdagi qonunda ham o'z aksini topib kelmoqda.

Va yana shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil dekabrda qaratilgan qarori bilan 1-oktabr – “O‘qituvchilar va murabbiylar kuni” deb belgilandi hamda bu kun bayram sifatida dam olish kuni deb e’lon qilindi. 1997-yildan boshlab har yili 1-oktabr “O‘qituvchilar va murabbiylar kuni” sifatida nishonlanib kelinmoqda. Bu o‘z navbatida pedagoglarga qaratilayotgan yuksak e’tibor namunasi.

O‘tgan davr mobaynida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi sifatida qabul qilingan dasturning 3 bosqichli islohotlari asosida amalga oshirilganligi, qilingan amaliy ishlar isboti bo‘lib hizmat qiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida, I bosqich – 1997–2001-yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy-me’yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart- sharoitlar yaratildi. Buning uchun davlat tomonidan qo‘shimcha ravishda 65 milliard so‘m mablag‘ sarf qilindi. II bosqich – 2001–2005-yillarni o‘z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. III bosqich – 2005-yildan bugungi kungacha. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi natijasida erishilgan natijalar, to‘plangan tajribalar umumlashtirilib, shu asosda yurtimizda ta’lim tizimi takomillashtirilib borildi. 2009-yildan boshlab yurtimizda to‘liq 12 yillik majburiy ta’lim joriy etilgan edi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2004-yildagi farmoni Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning 3 bosqichi doirasida 2004–2009-yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi qabul qilindi. ko‘plab yangi maktablar qurildi, qayta ta’mirlandi, moddiy texnik bazalar yaxshilandi. ATM lar o‘quv dasturlariga kiritildi. Ta’lim tizimida yangi o‘quv dasturlari, davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi va milliyalashtirildi. Barcha ta’lim tizimi xarajatlari to‘laligicha davlat hisobidan moliyalashtirildi.

Ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar 2017 yilda, 12 yillik ta’limni takomillashtirish yo‘lidagi qilingan ishlar o‘zining ma’lum darajadagi amaliy natijasini bermaganligi uchun, sohaga oid muammolar sohani tub isloh qilishni, dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasini o‘rganishni va amaliyotda foydalanish zarurligini taqozo qildi. Bir so‘z bilan aytganda, 2017-yil umumta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, Oliy ta’lim tizimini tub isloh qilish yili bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu o‘rinda, Xalq qabulxonalari va Prezidentning virtual qabulxonasiga kelib tushgan taklif va mulohazalar, shikoyat va arizalar hamda maktablaridagi bitiruvchilarning ota-onalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalaridan kelib chiqib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 9+3, ya’ni 12 yillik majburiy ta’limdan 11 yillik ta’limga o‘tish taklifi ilgari surildi va bir ovozdan ma’qullandi. “Yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishimiz, o‘rta va oliy

o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak", - deya ta'kidlagan.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, inson hayoti davomida 60 foiz ma'lumotni 5 yoshigacha oladi. Shu bois, bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk salohiyatli kadrlar bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Prezidentimiz, "Ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi bo'lgan maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash e'tiborimiz markazida bo'ladi", - deya ta'kidlagani bejiz emas, albatta.

Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. 2017-yilda O'zbekistonda 4916 ta maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat yuritgan. Oxirgi 20 yil davomida bog'chalar soni 45foizga kamaygan. Ayni damda bog'chaga borayotgan bolalar umumiy bolalar sonining 30 foizni tashkil qiladi. Ayni damda bu ko'rsatkichlar 70 % tashkil qiladi, bu ham aslida yetarli emas.

Eng zamonaviy ixtisosliklar bo'yicha alohida universitet va institutlar, jumladan, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Navoiy konmetallurgiya instituti, Mudofaa vazirligi qoshida Xarbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi kabi o'nlab yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. 1992 yil Andijon Davlat universiteti, Buxoro Davlat universiteti, Termiz Davlat universiteti, Urganch Davlat universiteti, Qarshi Davlat universiteti tashkil qilindi. Toshkent davlat elektrotexnika va aloqa texnikumi institutga aylantirildi. 1993-yil talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar belgilandi. Mamlakat qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan zamonaviy bilimlar sohibi bo'lgan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash maqsadida Toshkent Davlat Agrar universiteti, Andijon, Samarqand Qishloq xo'jaligi, Qarshi Muhandislik iqtisodiyot, Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash institutlari ish boshladi. Mamlakat viloyatlarida oliy universal ta'limni joriy etishda rivojlangan davlatlar tajribasiga suyanib ish tutildi.

OTMlariga qabul qilishda yangicha innovatsion uslublar 1992-yil respublikamizning 6 ta oliy ta'lim muassasasida test sinovi asosida dastlab tajriba sifatida o'tkazilgan bo'lsa, 1993-yilga kelib esa 46 ta oliy ta'lim muassasalarining 19 tasida tajriba tariqasida test sinovlari joriy etildi.

1994-yilga kelib Davlat test markazi tashkil etilib, shu yildan boshlab oliy ta'lim muassasalariga test orqali o'qishga qabul joriy etildi. 1996-yildan ta'lim olishda to'lov-shartnoma to'lovi joriy etildi. 1997-yilgi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq, 5 yillik oliy

ta'limdan 4 yillik bakalavriat va 2 yillik magistratura bosqichlaridan iborat ikki pog'onali tizimga o'tildi.

Keyingi 2017-2024 – yillarda ta'lim tizimining isloh qilinishi natijasida OTM lariga hujjatlarni qabul qilish mutlaqo elektron tizimi joriy etildi. Shu bilan birgalikda OTM lariga qabul qilish va abituriyentlar tanlov qilish tizimi tanlovning 5 bosqichli tizimi joriy etildi. Bu esa o'z navbatida kuchli va bilimli abituriyentlarning OTMlariga o'qishga kirish imkoniyatlari va ularning qamrovining keskin oshishiga sabab bo'ldi.

Yuzaga kelgan yangi tarixiy shart-sharoitlar ilm-fan sohasini tubdan isloh qilishni taqozo etar edi. Zero, dolzarb ilmiy-texnik muammolarni hal qilinishi respublikaning rivojlanishiga zamin yaratar edi.

1992-yil martdagi Prezident farmoni bilan ilmiy kadrlar tayyorlanishini tashkil etuvchi vakolatli organ – Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tashkil etildi. 2013-yil boshidan ilmiy tadqiqot olib borishning bir bosqichli qilib shakllantirildi. Lekin bu tizim mavjud xalqaro ilm-fan standartlariga to'la mos kelmaganligi, respublikadagi mavjud ilmiy salohiyatning tushib ketganligi sababli, 2017-yil fevraldan Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan xalqaro standartlariga mos keluvchi, falsafa doktori va fan doktori darajalarini beruvchi ikki bosqichli tizimga o'tildi.

2012-yilga qadar aspirantura (3 yil) va doktorantura (3 yil)dan iborat bo'lib, 2012–2017-yillarda bir bosqichli doktorantura faoliyat olib bordi. 2013–2017-yillar oralig'ida faqat 360 ga yaqin tadqiqotchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilda imzolangan “Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida”gi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlikning davlat va jamiyat qurilishiga, iqtisodiyot tarmoqlariga, qishloq xo'jaligiga, ijtimoiy rivojlanishga, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish tizimiga innovatsiyalarni joriy etish hamda ilg'or texnologiyalar joriy etilishida tashabbus qilish, muvofiqlashtirish va rag'batlantirish sohasidagi asosiy vazifalari belgilab berildi.

1997 yil Xorazm Ma'mun akademiyasi qayta tashkil etilib, O'zbekiston Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'limi sifatida tashkil etildi.

2000 yili Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondi dunyoning eng boy qo'lyozmalar xazinasidan biri sifatida YUNESKO madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi.

Mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimida olib borilgan izchil islohotlar natijasida mamlakatimizda bir qator chet el universitetlarining filiallari ochildi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti, Toshkent shahrida M.V.Lomonosov nomidagi

Moskva davlat universiteti, Toshkentda G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi va Janubiy Koreyaning Inha universiteti filiallari ham o'zbek yoshlariga o'z ta'lim sirlarini o'rgatmoqdalar.

Yurtimiz va xorijdagi o'quv maskanlarida yuzlab iqtidorli yoshlar ta'lim olmoqda va o'z malakasini oshirmoqda. Bunda xorijiy ta'lim muassasalari bilan ikki tomonlama tajriba almashish yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga chiqdi. Yoshlarni jahon fani va bilimlari xazinasidan bahramand qilishga katta e'tibor berilmoqda.

Respublika o'quv yurtlarining chet ellardagi o'quv markazlari bilan aloqalari ancha mustahkamlandi. Chet ellik o'qituvchilar va mutaxassislarni xorijiy tilda mashg'ulot olib borish uchun taklif qilish, shuningdek, chet el o'quv va ilmiy markazlarida olimlarning malaka oshirishi va talabalarning o'qishi kengayib bormoqda. Ayni vaqtda jahonning ko'plab mamlakatlaridan kelgan xorijiy fuqarolar O'zbekistonda ta'lim olishmoqda.

Prezidentimizning PF-4947-son farmoniga muvofiq, 2017–2021-yillarda oliy ta'limni tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini yanada zamonaviylashtirish, pullik xizmatlar ko'rsatish va moli-yalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining va-kolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. 2017–2018-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmishga yaqin farmon, qaror va farmoyishi qabul qilindi. Bu tom ma'noda ta'lim tizimidagi o'zgarish va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi. Xarakatlar Strategiyasida ta'lim sifatini baholashning xalqaro normalariga joriy etish ta'lim muassasalari faoliyati va samaradorligini oshirishdagi ustuvor vazifalar belgilab olindi. 2017-yilda 10 yildan ortiq vaqt mobaynidagi tanaffusdan keyin davlat va jamiyatdagi malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar inobatga olinib, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan sirtqi ta'lim tizimi tiklandi, maxsus sirtqi ta'lim takomillashtirildi.

NATIJALAR. Hozirgi kunga kelib, mamlakatimizdagi OTMLar filiallar, universitet, institut va xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalarining filiallari bilan qo'shib hisoblaydigan bo'lsak, viloyatlar kesimida – Andijonda 7 tani, Buxoroda 5 tani, Farg'onada 8 tani, Sirdaryoda 4 tani, Jizzaxda 4 tani, Namanganda 4 tani, Navoiyda 4 tani, Qoraqolpog'istonda 12 tani, Qashqadaryoda 5 tani, Samarqandda 13 tani, Surxandaryoda 7 tani, Xorazmda 4 tani, Toshkent viloyatida 4 tani, Toshkent shaxarda 34 tani, Xarbiy ta'lim muassasalari 13 tani, xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalarining filiallari 33 tani va nodavlat OTMLar umumiy hisobda xususiy universitetlar bilan qo'shib hisoblaganda ularning soni 220 taga yetib qoldi.

O'zbekiston Global innovatsion indeks reytingida 2015 yilga nisbatan 40 pog'onaga ko'tarilib, 2022 yilda 82-o'rinni egalladi. Innovatsiya va ilm-fan sohasiga davlat byudjetidan ajratiladigan yillik mablag'lar hajmi 3 barobarga hamda loyihalarni moliyalashtirish xajmi 3,5 barobarga oshirildi.

“Milliy ta'lim tizimida yoshlarda pragmatik dunyoqarashni shakllantirish orqali O'zbekistonning umumiy rivojlanish strategiyasi amalga oshiriladi, bu esa Uchinchi Renessansning mustahkam asosini yaratadi”.

Mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish uchun turli soha va tarmoqlar bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, salohiyatli fidoyi va izlanuvchan mutaxassis kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shunga ko'ra, davlatimiz rahbari tomonidan jamiyatimizning bilimli va iste'dodli kadrlarga bo'lgan uzoq muddatga mo'ljallangan ehtiyojini qondirish, iqtisodiyotni raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida oliy ta'lim, xalq ta'limi hamda maktabgacha ta'lim tizimlarini o'zaro muvofiq va uyg'un holda rivojlantirish yo'nalishlari belgilab berilib, ta'sirchan va izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro hamkorlik natijasida keyingi 3 yil davomidagi yangi oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi. 2018 yilda Rossiyaning 2 ta, Janubiy Koreyaning 2 ta, Latviyaning 1 ta OTMlari filiallari ochildi. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, shu yil Hindiston va Rossiyaning 2 ta, AQSHning 1 ta OTM filiallari tashkil etilib, ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislardan 832 nafar jalb etilgan. Bu o'z navbatida tajriba orttirish va ulardan ta'lim tizimi islohotlarining samarali tomonlari o'rganiladi.

2018 yil 25 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha “El-yurt umidi” jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi. “El-yurt umidi” jamg'armasi zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatli hamda sharaflilarni samarali amalga oshirishda o'zaro hamkorlik va uzviy aloqaga asoslangan faoliyat yuritish zarurligi to'g'risida Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgan edi: “Mamlakatimiz taraqqiyoti uchun iste'dodli kadrlarni yetakchi xorijiy ta'lim markazlarida tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida “El-yurt umidi” jamg'armasi tashkil etilganidan xabaringiz bor. Qanday og'ir bo'lmasin, tan olishimiz kerak, yurtimiz ravnaqi uchun eng zarur yo'nalishlar bo'yicha izlanuvchan, iste'dodli yosh kadrlarni chetda, rivojlangan davlatlarda o'qitishga majburiy. Shuning uchun ham Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi, oliy o'quv yurtlari, mamlakatimizdagi ilmiy markazlar "El-yurt umidi" jamg'armasi bilan yaqin hamkorlikda samarali ish olib borishi kerak".

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev bu haqda fikr bildirar ekan: "nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak". Shu bilan birga, Davlatimiz rahbari o'z fikrlarini davom ettirib, "xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik shakllarini rivojlantirish kerak bo'ladi" deb ta'kidlagan edi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda eng avvalo, xorij mamlakatlarini ta'lim tizimini o'rganishga asos bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu ma'noda tadqiqotda Germaniya Federativ Respublikasining ta'lim tizimini o'rganishga va tahlil qilishga e'tibor qaratilgan.

Ta'limga nisbatan xalqaro hamkorlik va uning istiqbollari, ta'lim olish va uning samaradorligi haqida amerikalik biznesmen Djon Grillos fikr bildirib, "o'quvchilar u yoki bu sohada o'zlashtirayotgan bilimlarning mustahkamlik darajasi uncha muhim emas, chunki bu bilimlar xar yili o'zgaradi va ba'zan o'quvchilar ularni o'zlashtirishga ulgurmaslaridan eskiradi. Binobarin, iqtisodiyotga axborot bilan ishlashni mustaqil o'rganishga, turli sohalardagi o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil takomillashtirishga, zarur holda yangi bilimlar va kasblarni o'zlashtirishga qodir bo'lgan yoshlar kelishi muhimroqdir", - deb ta'kidlagan.

Ta'lim tizimlarini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: insonni bilimning turli sohalarida rang-barang mustaqil faoliyatga jalb qilish orqali uning aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlash.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz ta'lim tizimi tub islohotlar davrini boshidan o'tkazmoqda va bu islohotlar, albatta, o'zining mevasini beradi albatta. Mamlakatning taraqqiy etishi ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya tizimining rivojlanishi va yuksalishiga bog'liq hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ta'lim tarbiya tizimi rivojlanishi va taqaqqiy etishi, ko'p tamondan jahon standartlari darajasiga ko'tarilishi, shu bilan birgalikda innovatsion tus olishi ham muhim ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 63.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. – Б. 11.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасидан. 2018. "Халқ сўзи" газетаси. №272 29.12.2018 йил.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017. – Б. 82.

5. “Сифатли таълим ва инновациялар – барқарор келажак асоси” мавзусидаги халқаро конференциядан 2023 йил 6 июль <https://xs.uz/uzkr/post/sifatli-talim-va-innovatsiyalar-barqaror-kelazhak-asosi-mavzusidagi-khalqaro-konferentsiya-otkazildi>. 2023 йил 6 июль)
6. Одтлов, К. (2021). The development of the national system of education and upbringing is the basis for creating the foundation of the third renaissance. International Journal of Advanced Research. <https://doi.org/10.21474/IJAR01/12945>.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 25 сентябрдаги ПФ-5545. Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинган куннинг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28 декабрь 2018 йил. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б.33.
9. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.173.
10. Миралиева Д. Жаҳон таълим тизими. Ўқув услубий мажмуа. – Тошкент: Иқтисодиёт., 2016 й., - Б. 30.
11. Comparative Education. Sohail Naqvi. Journal-srpnumber № 6. 2012year/ page 56.
12. www.uzbekistonovozi.uz. 28 май 2019 йил
13. <https://www.lex.uz/docs/48401>
14. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistondagi_universitetlar